



### ONOMASTIK BIRLIKLARNI O'QITISHDA LISONIY XUSUSIYATLARI LINGUISTIC FEATURES IN THE TEACHING OF ONOMASTIC UNITS

**Xusanova Maksuda Nishonovna**

*Renessans ta'lim universiteti v.b.dotsent, f.f.f.d*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17932903>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda onomastik birliklarning (antroponim, toponim, etnonim, teonim, zoonim, kosmonim va boshqalar) darsliklarida qo'llanilishining tilshunoslik hamda ta'limiy ahamiyati tahlil qilinadi. Onomastik birliklarning o'quvchilarning til madaniyati, tarixiy tafakkuri va milliy o'zlikni anglash jarayoniga ta'siri yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** onomastika, antroponim, toponim, darslik, ona tili ta'limi, milliy identifikatsiya.

**Abstract:** This thesis analyzes the linguistic and educational significance of the use of onomastic units (anthroponym, toponym, ethnonym, theonym, zoonym, cosmos, etc.) in school textbooks. The influence of onomastic units on the process of students' language culture, historical reflection and national self-perception is highlighted.

**Keywords:** onomastics, anthroponym, toponym, textbook, mother tongue education, national identity.

#### **Kirish.**

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko'ra quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi: antroponimiya-kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), toponimiya-geografik obyektlarning atoqli nomlari, teonimiya-turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniyafsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, zoonimiya-hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, kosmonimiya-fazoviy bo'shliq hududlari, gallaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, astronomiya-ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining kelib chiqishi va ma'nosi o'zida ifodalaydi[3,43]. Shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o'rganadi. Ma'lumki, o'zbek tilida onomastik birliklarning deyarli barcha asosiy tiplari mavjud bo'lib, bu o'zbek tili onomastik tizimining boy va juda serqirra ekanidan darak beradi[3,6]. O'zbek tilining atoqli otlari tizimi va unga kiruvchi onomastik birliklar maktab darsliklarining xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot matnlarida, shoir va yozuvchilar avtobiografiyasida, ona tili darsliklarining mashqlarida qo'llangan. Maktab darsliklarida onomastik birliklardan foydalanish o'quvchilarga til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglash, tarixiy-madaniy ma'lumotlarni egallash, matnni chuqur idrok etish imkonini beradi. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq



yoʻzuvchisi– bu oliy unvonlar Said Ahmadning el-yurt oldidagi buyuk xizmatlarining xalq tomonidan, davlat tomonidan eʼtirof etishidir[1,23]. Insonning aqliy, gʻoyaviy, badiiy, madaniy, maʼrifiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini ragʻbatlantirish maqsadida shakllangan hamda taʼsis etilgan unvon, orden, medal va mukofotlarning nomlari atoqli otlar dignitonimlardir. Radioda konsert boʻlyapti. “Endi “Choʻli Iroq”ni tinglang”[1, 19]. Musiqa sanʼat asarlarining (kuy, ashula, qoʻshiq va b.) atoqli oti[2,33]. Onomastik birliklar oʻquvchilarga oʻzbek tili, tarix, geografiya va madaniyat haqida ham tushuncha beradi. Toponimika haqida eshitganmisiz? Bu fan geografik nomlarning kelib chiqishi va lugʻaviy maʼnosi haqida qiziqarli maʼlumotlar beradi. Albaniya –“Togʻlilar yeri”, Argentina- “Kumush” [1, 57]. Toponim haqida qisqa maʼlumot berilgan. Matnlarda Oʻzbekiston, Toshkent, Qashqadaryo, Olmaota, Andijon, Marhamat, Samara–Chemkent, Tojikiston, Qozogʻiston, Mirzachoʻl, Oqtepa kabi joy nomlar uchraydi. Antroponimlar– shaxs (inson)ning atoqli otidir. Antroponimlar makrokoʻlamiga kiradigan ismlar, laqablar, taxallus va familiyalar tashkil topgan atoqli otlardir. Shuningdek, matnlarda antroponimlar koʻp qoʻllangan. Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad ibn Muso al Xorazmiy kabu taxalluslar, Ziyo shohichi, Dilmurod poʻshta kabi laqablar, Said Ahmad, Oʻtkir Hoshimov, Muhammad Yusuf kabi ism familiyalar uchraydi. Xulosa qilib aytganda, onomastik birliklar oʻquv oʻquvchilarga axborot berib, tarixiy, geografik va madaniy bilimlarni boyitadi; estetik – matnning badiiy taʼsirchanligini oshiradi, tarbiyaviy – oʻquvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat tuygʻusini shakllantiradi; kognitiv – oʻquvchilar tafakkurini, tahlil qilish koʻnikmasini rivojlantiradi. Darsliklarda onomastik birliklarning toʻgʻri va izchil qoʻllanishi til madaniyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni kuchaytirish va soʻz boyligini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli, darslik mualliflari onomastik materiallarni tanlashda ularning yoshga mosligi, maʼnaviy-tarbiyaviy yuklamasi hamda madaniy qadriyatini hisobga olishlari zarur. Onomastik birliklar maktab darsliklarining muhim tarkibiy qismi boʻlib, ular oʻquvchilarning til bilimini chuqurlashtirish, tarixiy ongini kengaytirish va milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois kelgusida darsliklarda onomastik birliklarning oʻrni va mazmunini tizimli oʻrganish hamda ularni metodik jihatdan asoslab berish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B, Sh.Toshmirzayeva, S. Atoyeva, S. Majidova.Ona tili. 11-sinf. Darslik, 2020.
2. Begmatov E.A. Oʻzbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 33 b
3. Enazarov T., Xusanova M.Oʻzbek nomshunosligi.-Toshkent, 2015. – 43b.
4. Avloqulov Ya.I. Oʻzbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2012.